

# Farg'ona viloyatida kichik tadbirkorlik

 2019 yil yanvar-mart  
(dastlabki ma'lumot)

## E'tibor bering!

- 2019 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 55,5 % tashkil etdi.
- 2,8 mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar tashkil qilindi.
- 2019 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 12,5 birlikni tashkil qildi.

2019 yilning yanvar-mart oylarida 2,8 mingta yangi kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,6 marta ko'p demakdir.

Eng ko'p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdo sohasida (52,1%), sanoat tarmog'ida (23,1%), qurilish tarmog'ida (5,8%), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (2,8%), yashash va ovqatlanishda (7,2%), tashish va saqlashda (3,3%) tashkil etilgan.



sanoat

23,1%


 qishloq, o'rmon va  
baliq xo'jaligi

2,8%



savdo

52,1%


 Yashash va ovqatlanish  
xizmati

7,2%



qurilish

5,8%


 Tashish va  
saqlash

3,3%

**Farg'ona viloyatida  
2019 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning asosiy  
ko'rsatkichlari**


	O'lchov birligi	2018 y.	2019 y.	(+-)
<b>Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni</b>	<b>birlik</b>	<b>21099</b>	<b>26040</b>	<b>4941</b>
<b>Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar</b>	<b>birlik</b>	<b>1105</b>	<b>2851</b>	<b>1746</b>
YaHM	%	59,0	55,5	-3,5
Sanoat	%	29,7	34,3	4,6
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	%	97,0	99,3	2,2
Investitsiya	%	50,9	49,8	-1,1
Qurilish	%	94,4	88,4	-6,0
Savdo	%	90,1	88,2	-2,1
Xizmatlar	%	74,6	71,1	-3,5
Yuk tashish	%	94,0	93,2	-0,8
Yuk aylanmasi	%	95,3	95,5	0,2
Yo'lovchi tashish	%	92,8	94,1	1,3
Yo'lovchi aylanmasi	%	94,9	95,8	0,9
Eksport	%	30,4	43,1	12,8
Import	%	47,8	73,1	-25,3

**Hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar  
va mikrofirmalar**

*(birlikda)*

	<b>yanvar-mart 2018 y.</b>	<b>yanvar-mart 2019 y.</b>
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>1105</b>	<b>2851</b>
Farg'ona shahar	192	413
Qo'qon shahar	132	322
Quvasoy shahar	39	77
Marg'ilon shahar	87	299
Oltiariq tumani	69	168
Qo'shtepa tumani	19	90
Bag'dod tumani	45	113
Buvayda tumani	75	152
Beshariq tumani	27	89
Quva tumani	42	198
Uchko'prik tumani	63	153
Rishton tumani	48	116
So'x tumani	22	38
Toshloq tumani	47	106
O'zbekiston tumani	44	145
Farg'ona tumani	47	126
Dang'ara tumani	34	126
Furqat tumani	42	68
Yozyovon tumani	31	52


## Yangi tashkil etilgan korxonalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda



2019 yil yanvar-mart oyari davomida viloyatning hududlari bo'yicha eng ko'p yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Farg'ona shahrida - 413 ta, Qo'qon shahrida - 322 ta, Marg'ilon shahrida - 299 ta, Quva tumanida - 198 ta, Oltiariq tumanida - 168 ta, Uchko'prik tumanida - 153 ta, Buvayda tumanida - 152 ta va O'zbekiston tumanida - 1145 tani tashkil etdi.

Farg'ona, Dang'ara, Rishton, Bag'dod, Toshloq, Qo'shtepa va Beshariq tumanlarida bu ko'rsatkich o'rta darajada bo'lib, 126-89 tani tashkil etgan. Eng past ko'rsatkichni Quvasoy shahar (77 ta), Furqat (68 ta), Yozyovon (52 ta) va So'x (38 ta) tumanlari tashkil etgan.

## 2019 yil yanvar-mart holatiga yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, foizda



2019 yil yanvar-mart holatiga hududlar bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jami miqdoridan eng ko'p ulush Farg'ona shahriga - 14,5 %, Qo'qon shahri - 11,3 %, Marg'ilon shahri - 10,5 %, Quva tumani - 6,9 %, Oltiariq tumani - 5,9 %, Uchko'prik tumani - 5,4 %, Buvayda tumani - 5,3 %, O'zbekiston tumani - 5,1 %, Farg'ona - 4,4 %, Dang'ara - 4,4 %, shuningdek Quvasoy shahar, Rishton, Bag'dod, Toshloq, Qo'shtepa, Beshariq, Furqat, Yozyovon va So'x tumanlari 4,1-1,3 foiz atrofida tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan  
kichik korxonalar va mikrofirmalar**

*(birlikda)*

	<b>yanvar-mart 2018 y.</b>	<b>yanvar-mart 2019 y.</b>
<b>Jami</b>	<b>1105</b>	<b>2851</b>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	82	81
Sanoat	343	659
Qurilish	112	166
Savdo	234	1486
Tashish va saqlash	51	95
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	57	206
Axborot va aloqa	31	26
Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	38	24
Boshqa turdagi xizmatlar	157	108

2019 yil yanvar-martida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar eng ko'p **savdoda** 1486 ta, shuningdek :

**Sanoatda** - 659 ta.;

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar** – 206 ta.;

**Qurilishda** - 166 ta.;


**Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida** - 81 ta.;

**Axborot va aloqa sohasida** - 26 ta.;

**Sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda** – 24 ta.;


**Boshqa turdagi xizmatlar** - 102 ta.

## yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi (foizda)




Yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi savdoda – 52,1 foiz; sanoatda 23,1 foiz; yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda – 7,2 foiz; qurilishda – 5,8 foiz; tashish va saqlashda - 3,3 foiz; qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 2,8 foiz; axborot va aloqada - 0,9 foiz; sog'likni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda – 0,8 foiz va boshqa turdagi xizmatlarda – 4,0 foizni tashkil etdi.

**2019 yilning yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda).**





**Kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni  
(har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-mart holatiga.**




Agar, 2018 yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlik sub'yektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda) 11,3 birlikni tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilda bu ko'rsatkich 12,5 birlikka yetdi va 2018 yilga nisbatan 1,2 birlikka ko'paydi.



Quyida, 2019 yilning yanvar-martida iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik (biznes)ning sanoatdagi ulushi 34,3 %, qurilishda - 88,4 %, investitsiyada - 49,8 %, savdoda - 88,2 %, eksportda - 43,1 %, importda - 73,1 % va xizmatlar sohasidagi - 71,1 % ulushi aniq ko'rsatilgan.

## 2019 yilning yanvar-martda iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlikning ulushi tuzilishi




## Farg'ona viloyatida kichik tadbirkorlikning YaHM dagi ulushining pasayishi dinamikasi yanvar-mart holatiga, %



2019 yil yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra Yalpi hududiy mahsulot hajmida kichik tadbirkorlik (biznes) ning ulushi 55,5 foiz (2018 yil joriy davrda- 59,0 foiz) ni tashkil etdi. Yalpi hududiy mahsulot hajmida kichik tadbirkorlik ulushining pasayishini yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlash mumkin.

## Kichik tadbirkorlikning ulushi (umumiy hajmiga nisbatan %da)



Hududlar bo'yicha **sanoat sohasining** yuqori ulushini Marg'ilon shahri, Oltiariq, Qo'shtepa, Buvayda, So'x, Dang'ara, Furqat va Yozyovon tumanlari (100,0 % dan) tashkil etadi.

**Qurilishda** - Marg'ilon shahri, Oltiariq, Qo'shtepa, Buvayda, Quva, Uchko'prik, Rishton, So'x, O'zbekiston va Furqat tumanlarida 100 foizni tashkil etadi.


**Xizmatlar sohasida** Qo'shtepa (97,5 %), Bag'dod (96,9 %), Furqat (96,8 %), Uchko'prik (96,5 %), Marg'ilon shahar (96,4 %), Buvayda (96,2 %), So'x va Yozyovon tumanlari (96,1 % dan) hamda Dang'ara tumani (95,9 %) tashkil etadi.

**Investitsiyada** – Uchko'prik (93,6 %), Toshloq (88,8 %), Oltiariq (88,0 %) tumanlari, shuningdek Marg'ilon (88,6 %) shahri tashkil etadi.

**Farg'ona viloyatida 2019 yil yanvar-martida kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, (%)**

	<b>Sanoat</b>	<b>Qurilish</b>	<b>Xizmatlar</b>	<b>Investitsiya</b>
<b>Farg'ona viloyati</b>	<b>34,3</b>	<b>88,4</b>	<b>71,1</b>	<b>49,8</b>
<i>hududlar</i>				
Farg'ona sh	16,2	85,8	44,5	33,9
Qo'qon sh	22,0	59,2	88,5	47,7
Quvasoy sh	19,0	94,1	93,1	41,5
Marg'ilon sh	100,0	100,0	96,4	88,6
Oltiariq	100,0	100,0	95,5	88,0
Qo'shtepa	100,0	100,0	97,5	84,5
Bag'dod	33,8	93,1	96,9	78,0
Buvayda	100,0	100,0	96,2	78,3
Beshariq	33,8	31,7	95,2	6,5
Quva	58,7	100,0	92,7	75,3
Uchko'prik	83,5	100,0	96,5	93,6
Rishton	24,4	100,0	91,6	69,8
So'x	100,0	100,0	96,1	44,9
Toshloq	20,9	88,8	95,7	88,8
O'zbekiston	54,1	100,0	95,6	75,5
Farg'ona t	100,0	95,6	83,2	50,8
Dang'ara	100,0	95,6	95,9	84,1
Furqat	100,0	100,0	96,8	84,1
Yozyovon	100,0	95,4	95,7	43,9

## Farg'ona viloyatida 2019 yil yanvar-martda kichik Tadbirkorlik (biznes)ning tarmoqlar bo'yicha ulushi, (%)



■ Kichik biznes

■ Boshqa yirik korxonalar va tashkilotlar

**Kichik tadbirkorlik  
sub'yektlari  
tomonidan**



**2019 yil yanvar-mart oylari  
davomida**



**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1420,8 mlrd.so'mni (jami sanoat ishlab chiqarish hajmining 34,3 %) yoki 2018 yilning yanvar-martiga nisbatan o'sish sur'ati 127,4 % ni tashkil qildi;**

**553,0 mlrd. so'mlik investitsiyalar (umumiy investitsiyalar hajmining 49,8 %) o'zlashtirildi va 2018 yilning yanvar-martiga nisbatan o'sish sur'ati 105,6 % ni tashkil qildi;**



**676,9 mlrd. so'mlik qurilish ishlari (qurilish ishlari umumiy hajmining 88,4 %) o'zlashtirildi va 2018 yilning yanvar-martiga nisbatan o'sish sur'ati 113,8 % ni tashkil qildi;**

**1739,2 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatilib (viloyat hami xizmatlar hajmining 71,1 %), 2018 yilning yanvar- martiga nisbatan o'sish sur'ati 105,6 % ni tashkil qildi;**



**chakana tovar aylanmasi hajmining 88,2 % yoki 2443,6 mlrd/so'm shakllantirildi (o'sish sur'ati 2,7 %);**



**47,0 mln.AQSh dollari (umumiy eksport hajmining 43,1 %) miqdorida (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, bu esa 2018 yilga nisbatan 19,0 mln.AQSh dollariga yoki 67,9 %ga ko'p;**



**avtomobil transporti yuk aylanmasining 3,5 %ga (viloyat jami avtomobil transporti yuk aylanmasining 95,5 %) ko'payishini ta'minlandi;**


**yo'lovchi aylanmasining esa 2,0 %ga (viloyat umumiy yo'lovchi aylanmasining 95,8 %) ko'payishi ta'minlandi.**








### Farg'ona viloyatida kichik tadbirkorlikdagi tovar,xizmatlar eksportining, jami eksport hajmidagi ulushi, %



2019 yil yanvar-mart holatiga hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikdagi eksport (tovar,xizmat)larning jami eksportdagi eng ko'p ulushi Yozyovon, Furqat, Dang'ara, Ozbekiston, So'x, Uchko'prik, Quva, Buvayda, Bag'dod, Qo'shtepa va Oltiariq tumanlarida – 100 %, Marg'ilon shahar va Beshariq tumanida – 99,9 %, Farg'ona tumanida – 98,4 %, Quvasoy shahar – 98,3 %. Eng past ko'rsatkich Toshloq tumanida – 7,0 %, Qo'qon shahrida – 9,2 %, Rishton tumanida – 32,5 %, Farg'ona shahar – 34,3 % ni tashkil etdi.




## 2019 yil yanvar-mart hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi



Hududlar bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Farg'ona shahrida (262,0 mlrd.so'm), Dang'ara tumani (167,2 mlrd.so'm), Marg'ilon shahar (141,9 mlrd.so'm) va Qo'qon shahar (290,4 mlrd.so'm) lari hissasiga to'g'ri keladi. So'x (16,3 mlrd.so'm) va Furqat (16,8 mlrd.so'm) tumanlarida ushbu sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi past bo'lib qolmoqda.




## 2019 yil yanvar-mart holatiga jami sanoat maxsulotidagi kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, %



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat maxsulotidagi eng yuqori ulushi Marg'ilon.sh, Oltiariq, Qo'shtepa, Buvayda, So'x, Farg'ona, Dang'ara, Furqat, Yozyovon tumanlarida (52,7%) kuzatildi . Farg'ona shahar (16,2%), Quvasoy shahar (19,0%), Toshloq tumani (20,91%), Qo'qon shahrida (22,01%) kichik tadbirkorlikning ulushi past bo'lib qolmoqda.



## 2019 yil yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana tovar aylanmasi hajmi va sur'ati




Hududlar bo'yicha kichik biznes sub'yektlari tomonidan amalga oshirilgan ko'proq chakana tovar aylanmasi hajmi Farg'ona (543,0 mlrd.so'm), Qo'qon (352,2 mlrd.so'm), Marg'ilon (195,0 mlrd.so'm) shaharlari hamda Qo'shtepa (130,2 mlrd.so'm), Quva (125,4 mlrd.so'm) va Uchko'prik (105,4 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.






## 2019 yil yanvar-martda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Farg'ona (144,1 mlrd.so'm), Quvasoy (73,5 mlrd.so'm), Marg'ilon (59,5 mlrd.so'm) shaharlari hamda Oltiariq (42,8 mlrd.so'm) va Dang'ara (42,3 mlrd.so'm) tumanlarida qayd etildi.



## 2019 yil yanvar-martida hududlar bo`yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va sur'ati




Hududlar bo`yicha ko'proq xizmatlar hajmi Farg'ona (493,9 mlrd.so'm), Qo'qon (282,7 mlrd.so'm), Marg'ilon (232,9 mlrd.so'm) shaharlari hamda Oltiariq (64,1 mlrd.so'm), Uchko'prik (68,8 mlrd.so'm) va Farg'ona (60,4 mlrd.so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2019 yil I chorak yakunlariga ko'ra, yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarda tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi. Unda 207 dan ortiq respondentlar ishtirok etdi. Ulardan sanoat korxonalari – 49 (ishtirok etgan respondentlarning umumiy sonidan 23,7 %), savdo - 99 (47,8 %), xizmatlar sohasi - 37 (17,9 %), qurilish - 16 (7,7 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi - 6 (2,9 %).


**Farg'ona viloyatida 2019 yilning yanvar-martida kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi**



Hududlar kesimida kuzatuv o'tkazish uchun tanlab olingan I chorakda yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning, 17,4 foizi (36 birlik) - Farg'ona shahriga, 13,0 foizi (27 birlik) - Qo'qon shahriga, 8,7 foizi (18 birlik), – Marg'ilon shahriga, Oltiariq va Dang'ara tumanlari - 7,2 foiz (15 birlik), Uchko'priq, Toshloq va Farg'ona tumanlari - 5,3 foiz (11 birlik), Buvayda tumani - 4,8 foiz (10 birlik), Quva tumani – 4,3 foiz (9 birlik), O'zbekiston tumani - 3,9 foiz (8 birlik), Bag'dod tumani - 3,4 foiz (7 birlik), Qo'shtepa tumani - 2,9 foiz (6 birlik), Quvasoy shahar va Rishton tumani - 2,4 foiz (5 birlik), So'x va Beshariq tumanlari - 1,9 foiz (4 birlik), Yozyovon tumani - 1,4 foiz (3 birlik) hamda Furqat tumaniga - 1,0 foiz (2 birlik) dan to'g'ri keldi.




## 2019 yilning yanvar-mart yakuni bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan yangi tashkil etilgan mikrofirma va kichik korxonalarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi



Kuzatuv ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, so'rovnoma o'tkazilgan respondentlarning 44,0 foizi iqtisodiy vaziyatni qulay va 53,6 foizi qoniqarli deb baholagan. Mos ravishda qurilish sohasida – 43,8 % va 50,0 %, savdo sohasida – 46,5 % va 53,5 %, xizmatlar sohasida – 54,1 % va 43,2 %, qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 33,3 % va 66,7 %, sanoatda – 32,7 % va 61,2 % ni tashkil qilganini ko`rsatdi.


Joriy iqtisodiy vaziyatga pessimistik ruhda yondashganlar sanoatda – 6,1 %, qurilishda – 6,3 %, qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 0,0 %, xizmatlar sohasida – 2,7 % va savdoda – 0,0 %ni tashkil qildi.

## Iqtisodiy vaziyatni baholash 2019 yil I chorak uchun, %






Iqtisodiy vaziyat yaxshilanishi yaqin uch oyda 63,3 % sanoat korxonalari, 66,7 % – savdo, 77,4 % – xizmatlar, 66,7 % – qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi va 62,5 % – qurilish tarmog`idagi kichik korxonalar va mikrofirmalarda kutilmoqda.

### Iqtisodiy vaziyatdagi o`zgarishlar istiqbolini yaqin uch oyda baholanishi, %



Tahlil natijalaridan kelib chiqib, yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarga biznes muhitini yaxshilash uchun ko'rilayotgan chora tadbirlar natijasida respondentlar yaqin istiqbolda umumiy iqtisodiy vaziyatning yaxshilanishini ijobiy baholayotganligini xulosa qilish mumkin.



**Ishbilarmonlik muhiti kuzatuvlari,  
tadbirkorlikni rivojlantirish statistikasi  
bo'limi**

Nashr uchun mas'ul: J.Artikov  
Tel.: (0371) 230-87-35